

**DEMOGRAFIK JARAYONLARNING JAMIYAT HAYOTIDA
TUTGAN O‘RNI**

***Odinaxon Abdusamatova
Kamola Sotiboldiyeva***

*Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti
2-kurs talabalari*

Annotatsiya: Sotsiologiyada ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi va funksional qonuniyatlarini o‘rganishda o‘ziga xos murakkab jarayonlarni tadqiq etadi. Mazkur maqolada ham jamiyatning sotsial- demografik tizimini o‘rganish va ushbu tizimlarning xususiyatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Demografik jarayonlarni o‘rganish statistika, huquq, demografiya va turli soha mutaxassislari uchun kerakli ma‘lumotlarni va kelgusi faoliyatlarini to‘g‘ri rejalashtirish uchun samarali imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so‘zlar: Demografiya, aholi tarkibi, aksriptiv, vitol tavsiflar, yosh tarkibi, endogen omillar, ekzogen omillar, migratsiya, sotsial tizimlar.

Demografiya (yunoncha “demos” – xalq , “ grapho “ – yozaman) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rmini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini sotsial-tarixiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘rganadigan fan.

Ma‘lumki, demografik jarayonlarni o‘rganish birmuncha murakkab va o‘zgaruvchan jarayondir. Asosan, statistik tashkilotlar tomonidan to‘planadigan ko‘plab ma‘lumotlardan foydalaniladi. Dunyo miqyosida esa bunday axborotlarni to‘plash BMT boshchiligidagi tuzilgan maxsus dastur asosida amalga oshiriladi.

Nima uchun biz sotsiologiyada demografik jarayonlarni uning jamiyat hayotiga ta‘sirini o‘rganamiz?

Bilamizki , bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu aholi sonining muntazam ortib borishidir. Demografik jarayonlarning ayrim tomonlari bu sohaga oid muammolarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Uning o‘zgarishlari jamiyat ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bir qatorda, aholining turmush tarziga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi , deyishimiz mumkin.

Jamiyatning sotsial demografik tuzilishi – tug‘ilish, o‘lish, oila , nikoh, ajralish , migratsiya , jins va yosh bilan bog‘liq munosabatlar yig‘indisidan iborat. Ularni birma-bir tahlil qilib ko‘ramiz.

Aholi tug‘ilish orqali doimo ko‘payib boradi, Joriy yil ma‘lumotlariga ko‘ra hozirda dunyo aholisi 8mlrdni tashkil etadi. To‘g‘ri , bu raqamlar yaxshigina ishchi kuchini, intellekt sohiblarini, kuchli armiyani ifoda etadi. Biroq, tanganing ikkinchi

tomoni bo‘lganidek, barchaga birdek kiyim -kechak, xom-ashyo, oziq-ovqat yetkazish muammosi ham qarshimizda paydo bo‘lishini hisobga olish zarur. Qolaversa, ularni ish bilan ta‘minlash murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Dunyo bo‘ylab aholi tarkibini tadqiq qilish bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Chunki bu jarayonlar sotsiologiya fanidan tashqari demografiya , tarix , falsafa, iqtisodiyot , statistika va boshqa fanlarning obyekti sifatida o‘rganiladi. Turli fan vakillari aholi tarkibini quyidagi o‘zgaruvchan belgilarga asoslanib tavsiflaydi:

Aksriptiv tavsiflar : tug‘ilganda hisobga olinuvchi – jins , yosh , irqiy mansublik, etnik mansublik va boshqalar.

Sotsial tavsiflar : nikoh holati, savodxonlik va bilim , kelib chiqishi, ona tili , fuqarolik holati , diniy mansublik va hokazo.

Iqtisodiy tavsiflar: daromad manbayi, ish bilan bandlik maqomi, kasbi , mutaxassisligi va hokazo.

Migratsion mansublik: tug‘ilgan joy, mazkur joyda qancha vaqtdan beri yashayotganligi yoki yashash joyini qancha o‘zgartirganligi;

Vitol (demografik) tavsiflar: nikohga kirish yoshi, nikoh tarkibi, farzandlari soni , homiladorliklar soni , tug‘ilishlar soni kabilar ;

Oila tavsiflari : uy xo‘jaligi turi, kattaligi , tarkibi va boshqalar nazarda tutiladi.

Aholining jinsiy tarkibi – aholining erkaklar va ayollarga tavsiflanishi . Tabiiy qonuniyat sifatida o‘g‘il bolalarning tug‘ilishi qiz bolalar tug‘ilishiga nisbatan har doim yuqori bo‘lib kelgan. U asosiy biologik konstanta bo‘lib hisoblanadi. Sotsiologiyada yosh har qanday demografik jarayonlarning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Yosh haqidagi ma‘lumotlar – aholini ro‘yxatdan o‘tkazish , maxsus tekshiruvlar, tug‘ilish , o‘lish , nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonlarida olinadi. Ushbu ma‘lumotlar barcha sotsial soha vakillari uchun muhimdir.

Demografiya fanida o‘lim jarayoni muayyan darajada o‘rganiladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida kuzatiladigan o‘limning miqdor ko‘rsatkichlari aholining yoshi va o‘lim sabablari bilan bog‘liq omil yig‘indisi yordamida aniqlanadi. Bu omillar shartli ravishda 2ta endogen va ekzogen omillarga bo‘linadi.

Endogen omillarga misol sifatida inson organizmiga tashqi muhit ta‘sirini keltirish mumkin. Inson tug‘ilgandan to o‘lgunga qadar sodir bo‘ladigan endogen jarayonlar tabiiy keksayish bilan bog‘liqdir.

Ekzogen omillar insonni yoshligidan o‘limga olib kelmasada , organizmning keksayishi jarayonlarini tezlashtiradi va barvaqt o‘limga sabab bo‘ladi.

Yana bir demografik jarayon – aholi migratsiyasi. Migratsiya – lotincha “ko‘chish “ degan ma‘noni anglatadi. Aholining turli maqsadlarda , ya‘ni yangi yerlarni o‘zlashtirish , daromad topish, o‘qish , yashash hamda siyosiy nuqtayi nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirish harakatlari tushuniladi. Xalqaro

huquq normalariga muvofiq kishilar turar joyida ikki yildan kam yashagan bo‘lsa , ular migratsiya jarayonida hisoblanadi. Migratsiya *xalqaro va ichki* migratsiyaga bo‘linadi. Asosan, bu jarayonga sotsial-iqtisodiy omillar, siyosiy ta‘qiblar , diniy yoki irqiy siquvdan qochish, evakuatsiya yoki deportatsiya jarayonlari, etnik, demografik , tabiiy sharoitlar , ekologik muammolar sabab bo‘lishi mumkin.

Biz jamiyatning sotsial-demografik jarayonlarini tahlil qilar ekanmiz, muayyan hudud , mamlakat , dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lish jarayoni va omillarini o‘rganish , muammolarni aniqlab , istiqbollarini ko‘rsatish bo‘yicha qator mulohazalarga ega bo‘lamiz. Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlam vakillari mansub bo‘la oladi va shu o‘rinda aytish mumkinki, ushbu jarayonlar jamiyat strukturasining ajralmas qismi hamda boshqa o‘zgarishlarga asos bo‘lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi T.3.- T., 2002. 248-b
2. Sotsiologiya X.B.Saitxodjayev. Toshkent -2017
3. Сотциология. Учебник для вузов // Под.ред. В.Г.Осипова. Л.Н.Москвичева.- М., 2003. С.242
4. Бреева Е.Б. Основы демографии., – М., 2009.-С.65
5. Uz.m.wikipedia.org
6. Vaqt.ucoz.com